O'ZBEKISTONDA RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Muallif: **Muhammadjonov Muzaffar Rustam Ug'li**
E-mail: Muzaffar606m@gmail.com

Annotatsiya: ushbu ilmiy tezizda muallif tomonidan O'zbekistonda raqobat muhitini shakllantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari, ularning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqobatni himoya qilish, monopolistik faoliyatni cheklash, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng shart-sharoitlar yaratish hamda iste'molchilar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqobat, raqobat muhiti, me'yoriy-huquqiy asoslar, raqobat siyosati, monopoliyaga qarshi tartibga solish, monopolistik faoliyat, bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik subyektlari, iste'molchilar huquqlari.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"[1]gi PF-4947-sonli Farmoni va Vazirlar mahkamasining 2016-yil 26-fevraldagi PQ-55-sonli "2016-2020-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"[2]gi qarori, shuningdek, soha bo'yicha boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishni nazorat qilish so'nggi yillarda mamlakatimizda xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan. Shu jumladan, 2022-yil 11-mayda davlatimiz rahbarining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[3]gi qarori qabul qilingan edi. Unda mazkur sohani muhim drayverga aylantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini 2 barobarga oshirish belgilangan edi. Xususan, 2023-yilning o'zida xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan firmalarning soni 2022-yilga nisbatan 23% ga oshdi hamda Respublikada 2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va firmalarning 65,8%i aynan xizmat ko'rsatish sohasiga tegishli bo'ldi (sanoat 17,7%, qurilish 9,1%, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7,4%)[4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyundagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"[5]gi PQ-4752-sonli qarorida xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlash, mazkur yo'nalishga ko'proq tadbirkorlik subyektlari jalb qiliash va ularni yanada qo'llab-quvvatlash va aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish kabilar maqsad qilib belgilangan.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

[2] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.02.2016 yildagi 55-sonli qarori

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-sonli qarori

[4] Xizmatlar sohasi statistika boshqarmasi (xizmatlar_dekabr_uz.pdf (stat.uz)

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2021 yildagi PF-4752-sonli farmoni

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ushbu qarorga muvofiq, tijorat banklari tomonidan xizmat ko‘rsatish sohasidagi tadbirkorlik subyektlariga maishiy, ta'lim, tibbiyot, axborot-kommunikatsiya va boshqa sohalarda ayniqsa talab yuqori bo‘lgan faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalarni (moliya va savdo sohasidagi tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) tashkil etish va jihozlash uchun 14 foiz stavka bo‘yicha 1 milliard so‘mgacha mablag‘ ajratildi. Jalb etilgan resurs mablag‘lari muddatlaridan kelib chiqib, tijorat banklari tomonidan xizmatlar sohasidagi yangi loyihalarni moliyalashtirish uchun ilgari ajratilgan kreditlarning to‘langan qismi hisobidan (moliya sohasini rivojlantirish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi aylanma mablag‘larni to‘ldirish loyihalari bundan mustasno) bitta loyiha bo 'yicha 14 foiz stavkasi bo‘ yicha 2 milliard so‘mgacha kreditlar ajratilishi nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-sonli qaroriga asosan, 2023-yilgacha iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish hamda xizmatlar hajmini 2 barobarga oshirish ko‘zda tutilgan. **Bundan tashqari ushbu qarorga muvofiq:**

- aholiga tayyor biznes rejalar va loyihalar taqdim etish, ularni kasbga o‘qitishdan tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishgacha bo‘lgan bosqichlarni qamrab oluvchi “kompleks xizmatlar” ko‘rsatishni tashkil etish;
- respublikada xizmatlar sohasining rivojlanganligini baholash tizimini joriy etish orqali davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyati samaradorligini oshirish va mansabdor shaxslarning ma’suliyatini kuchaytirish;
- xizmatlar sohasida ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xizmatlar turlarini kengaytirish, hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda transport, moliyaviy, shuningdek, bank, turizm hamda savdo xizmatlari qamrovini kengaytirish;
- respublikaning barcha hududlarida mavjud ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari salohiyatini oshirish, ularning sifatini yaxshilash, bunda xususiy sektorni jalb qilish uchun qulay iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish respublikamizda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan.

Shu jumladan, raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida 2023-yil 7-iyulda PF-108-sonli “Ma’muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni kuchga kirdi. Ushbu farmonda monopoliyalarga qarshi kurashish, ustun mavqega ega xo‘jalik subyektlarining, shu jumladan, tabiiy monopoliya subyektlarining o‘z mavqeini suiiste’mol qilishi va raqobatga qarshi harakatlariga chek qo‘yish, sohaga oid kompleks dasturlarni ishlab chiqish, raqobatni rivojlantirish, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama yo‘nalishida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash, raqobatni rivojlantirish, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama sohalarida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish va hokazolar nazarda tutilgan.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko‘rib, shuni aniq aytish mumkinki, mamlakatimizda xizmatlar sohasi rivojiga berilayotgan katta e’tibor, ajratilayotgan mablag‘lar, yaratilayotgan qulayliklar va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tadbiq etilishi - bu sohaning iqtisodiyotda yetakchi bo‘lishiga va to‘g‘ridan-to‘g‘ri mamlakatimiz aholisi turmushini yanada farovon bo‘lishiga xizmat qiladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Raqobat munosabatlari davlat tomonidan tartibga solinadi va qo'llab-quvvatlanadi. Raqobatni davlat tomonidan rag'batlantirish qonunda ko'zda tutilgan huquqiy vositalar orqali amalga oshiriladi. **Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari quyidagilarni o'zichida oladi:**

1. Monopoliyaga qarshi qonunchilik aktlari – tadbirkorlik subyektlari, kapital va xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmasi holati ustidan davlat nazorati orqali monopollashtirishni cheklashga, monopolistik faoliyatning oldini olish va ta'qib qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar;
2. Adolatsiz raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari – adolatsiz raqobatning oldini olish va jinoiy javobgarlikka tortishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar to'plami.

Raqobat subyektlari (raqobatchilar) quyidagi shaklda raqobat harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslardir:

A. tadbirkorlik subyektlari. Bunga O'zbekiston va xorijiy tijorat tashkilotlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaydiganlardan tashqari, notijorat tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar;

B. moliyaviy tashkilotlar. Bu bank operatsiyalarini litsenziya asosida amalga oshiradigan yoki qimmatli qog'ozlar bozorida, sug'urta xizmatlari yoki moliyaviy xarakteridagi boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxslar kiradi.

Raqobat har qanday bozor iqtisodiyoti rivojlanishining shartidir. Aslida, raqobat erkin tadbirkorlikka asoslangan iqtisodiyotni tartibga soluvchi vazifasini bajaradi va shu bilan birga iqtisodiyotda raqobatni bostirishga intiladigan monopoliyaning antipod vazifasini bajaradi. **Raqobat o'z funksiyalarini faqatgina "mukammal" raqobat haqida gapirganda bajaradi, uning xususiyatlariga quyidagilar kiradi:**

A. raqobatda ishtirok etadigan cheklanmagan miqdordagi shaxslar, bozorga kirish yoki chiqishda to'siqlarning yo'qligi;

B. mehnat resurslarining mutlaq harakatchanligi va kapital harakati, bozor subyektlari uchun to'liq iqtisodiy harakat erkinligi;

C. mukammal raqobat tizimining barcha ishtirokchilari savdo sheriklarini tanlashda, har qanday huquq subyekti bilan biznes shartnomalarini tuzishda erkindir;

D. raqobat munosabatlarining har bir ishtirokchisining bozor ma'lumotlarining to'liq hajmiga ega bo'lishi;

E. mukammal raqobat tizimi ishtirokchilaridan hech biri narxlarga jiddiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak;

F. xo'jalik yurituvchi subyektning ko'rsatkichlari va ishbilarmonlik obro'si asosida iste'molchilar xohishlarini (bir hil va sifatli mahsulot bilan) shakllantirish;

G. tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilarini ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq taqiq va cheklovlarning yo'qligi. Bunday holda, biz ko'rsatgan oxirgi belgilar huquqiy xarakterga ega va ular raqobat to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlanishi kerak.

Xizmatlar sohasida erkin raqobatni mustahkamlash va monopoliya hukmronligini cheklashga qaratilgan huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topgan. 2022-yil 06-iyunda qabul qilingan "Reklama to'g'risida"gi qonun shular jumlasidandir. Tovar va xizmatlar bozorida raqobat va monopolistik faoliyatni nazorat qiluvchi huquqiy me'yoriy aktlar tizimiga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining alohida normalari ham kiradi. Fuqarolik kodeksiga asosan fuqarolik huquqlari raqobatni cheklash uchun qo'llanishga yo'l qo'ymaydi.

"Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobatni rivojlantirish to'g'risida"gi qonun mustaqil huquqlarga ega bo'lgan obyektlar bilan bog'liq munosabatlarda qo'llanilmaydi. Raqobat va monopoliyani tartibga soluvchi antimonopoliya qonunlari qatoriga Prezident farmonlari, Vazirlar

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi organlar buyruq va instruksiyalari ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi kurashish monopol faoliyatini cheklash va raqobat siyosatini shakllantirish uni amalga oshirish harakatlarini boshlanishi bo‘lib, ushbu sohada chet el tajribasini va respublika iqtisodiyotini o‘tish davridagi holati hamda mavjud huquqiy tizimning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

“Raqobat to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri[6] bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralari kuchaytirildi. Qonunning yangi tahriri 9 bob va 49 moddadan iborat. Qonunni ishlab chiqishda mas’ul muassasalarning ko‘plab ekspert va mutaxassislari ishtirok etdi. Qonunni ishlab chiqishda jami 38 ta xalqaro moliya institutlari ekspertlarining tavsiyalari (jumladan, Jahon bankining 26 ta tavsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining 11 ta tavsiyasi, Osiyo taraqqiyot bankining 1 ta tavsiyasi) hisobga olindi. Ushbu Qonun “Raqobat to‘g‘risida”gi (2012) va “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi (1999) qonunlarni birlashtirdi. Qonunga bir qator yangi, jumladan, monopoliyaga qarshi komplayens tushunchasi kiritildi.

Qonun bilan raqobat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Qonunga ko‘ra, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raqobat sohasidagi vakolatli davlat organi (monopoliyaga qarshi organ) hisoblanadi.

Qonunga bir qator yangi jumladan, monopoliyaga qarshi komplayens faoliyatning raqobat to‘grisidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va mazkur xatarlarning oldini olish bo‘yicha ichki tashkiliy tartib-omillar tizimidan iborat.

Monopoliyaga qarshi komplayens majburiy tartibda:

- Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarda;
- Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda;
- Oxirgi 3 yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining o‘rtacha yillik miqdori BHMning 100 ming barobaridan oshadigan hamda ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i davlatga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslarda;
- Yuridik shaxslarning birlashmalarida joriy etiladi.

Qonunda ustun mavqeni belgilashning yangi mezonlari kiritildi. Unga ko‘ra, tabiiy monopoliya subyektlari ham ustun mavqega ega subyektlar qatoriga qo‘shildi. Shuningdek, ustun muzokara kuchi instituti kiritilib, unga muvofiq, ustun mavqega ega bo‘lmagan xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tomonidan bitim shartlarini, tovarlar realizatsiya qilinadigan hududni va narxni belgilashga bir tomonlama ta’sir ko‘rsatish imkoniyatining mavjudligi ustun muzokara kuchi deb e’tirof etiladi.

Qonunga ko‘ra, davlat xo‘jalik yurituvchi subyektlarga soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar, davlat kafolatlari, imtiyozli kreditlar, eksklyuziv huquqlar, davlat mulkini imtiyozli narxlarda sotish va ijaraga berish, yer resurslaridan va yerosti boyliklaridan foydalanish huquqlarini imtiyozli shartlar asosida berish hamda boshqa preferensiyalar va afzalliklar tarzida davlat yordamini berishi mumkin.

Qonun bilan ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra:

- Fuqarolarga BHMning 3 barobaridan 10 barobarigacha;

[6] “Raqobat to’g’risida”gi qonun 2023-yil 3-iyul kuni [O’RQ-850-son] yangi tahrirda qabul qilindi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

➢Mansabdor shaxslarga esa 10 barobaridan 20 barobarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Bu o‘zgartirishgacha bo‘lgan davrda esa fuqarolarga BHMning 3 barobarigacha, mansabdor shaxslarga esa 5 barobarigacha jarima qo‘llanilgan.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxs tomonidan xomashyo, tovarlarning erkin harakatlanishini va realizatsiya qilinishini hamda xizmatlar ko‘rsatilishini qonunga xilof ravishda cheklash BHMning 30 barobaridan 20 barobarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalashni amalga oshirish, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish yoki maxsus elektron tizim vositasida xabarnomalarni qabul qilish vakolatlari yoki ro‘yxatga olish yoxud akkreditatsiyadan o‘tkazish vakolatlari berilgan davlat unitar korxonalari, muassasalari yoki yuridik shaxslarning birlashmalari tomonidan raqobatni cheklaydigan qarorlar qabul qilish BHMning 30 barobaridan 20 barobarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Har bir davlatda raqobat qonunchiligi ijrosini ta’minlash hamda monopoliyaga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi o‘zining maxsus vakolatli organlari faoliyat yuritadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, monopoliyani tartibga solish va unga qarshi kurashish uchun nafaqat mustahkam qonunchilik bazasi, balki aholining, ishbilarmon doiralarning, tadbirkorlik subyektlarining va davlat organlarining ochiqlilik va shaffoflik, mustaqillik asosida faoliyat olib boradigan monopoliyaga qarshi kurashuvchi organga bo‘lgan ishonchi ham lozim bo‘ladi. Turli raqobatga qarshi harakatlarning jamiyatga keltiradigan zararlarini salbiy oqibatlarini bartaraf erish uchun ko‘pgina davlatlarda monopoliyani tartibga soluvchi qonunchilikka rioya etishni nazorat qilish uchun turli maxsus organlar orqali amalga oshiradi.

Respublikamizda raqobat muhiti mavjud bo‘lgan iqtisodiyotda tadbirkorlik va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining erkin bo‘lishi, ularning istalgan tovarlar bozorida faoliyat ko‘rsatishlari va ushbu munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida raqobatni huquqiy tartibga soluvchi maxsus vakolatli organi O‘zbekiston Respublikasining xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hisoblanadi.

Foydalanilgan aabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.02.2016 yildagi 55-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-sonli qarori
4. Xizmatlar sohasi statistika boshqarmasi (xizmatlar_dekabr_uz.pdf (stat.uz)
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2021 yildagi PF-4752-sonli farmoni
6. “Raqobat to’g’risida”gi qonun 2023-yil 3-iyul kuni [O’RQ-850-son] yangi tahrirda qabul qilindi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.